

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloyevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnii rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullahayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози	161
Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboievich , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li , PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoy politiki na innovatsionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
Алимова София Розумбаевна , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'naliishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremennoy kommercheskogo banka.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganova Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyy opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsiy cheres rynek kapitala.....	380
Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi , doktorant	
Iskusstvennyy intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami	386
Xайдарова Малика Шакирджановна , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatini va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiiev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



FARMATSEVTIKA SANOATI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA FARMATSEVTIKAGA IXTISOSLASHGAN ERKIN IQTISODIY ZONALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI

Abdiyeva Flora Botir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston farmatsevtika korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun turli mamlakatlar tomonidan qo'llaniladigan xorijiy va ilg'or tajribalar aks ettirilgan. Shuningdek, farmatsevtikaga ixtisoslashtirilgan erkin iqtisodiy zonalar haqida keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Farmatsevtika sanoati, innovatsiya, raqobatbardoshlik, farmatsevtikaga ixtisoslashtirilgan erkin iqtisodiy zonalar, bozor hajmi, integratsiya va hamkorlik.

Аннотация: В данной статье отражен зарубежный и передовой опыт, применяемый различными странами для повышения конкурентоспособности фармацевтических предприятий Узбекистана. Также широко освещаются свободные экономические зоны, специализирующиеся на фармацевтике.

Ключевые слова: Фармацевтическая промышленность, инновации, конкурентоспособность, фармацевтические свободные экономические зоны, размер рынка, интеграция и сотрудничество.

Abstract: This article reflects foreign and advanced practices used by different countries to increase the competitiveness of pharmaceutical enterprises of Uzbekistan. Also, free economic zones specialized in pharmaceuticals are widely covered.

Key words: Pharmaceutical industry, innovation, competitiveness, pharmaceutical free economic zones, market size, integration and cooperation.

KIRISH

Jahon miqyosida farmatsevtika sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va ishlab chiqarishda tabiiy biologik zahiradan xom ashyo sifatida samarali foydalanish har bir mamlakat uchun dolzarb bo'lgan masalalardan hisoblanadi. COVID-19 pandemiyasidan so'ng farmatsevtika sanaotining ahamiyati ortib bormoqda, ayniqsa, dunyo aholisining sog'ligiga bevosita ta'sir qiluvchi dori vositalarining sifatini oshirish orqali umr ko'rish davomiyligini uzayishi, xavfli kasalliklarning erta aniqlanishi va oldini olishga erishish imkonini bermoqda.

Yangi O'zbekistonda jadal ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish davrida farmatsevtika sanoati taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-yil 21-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-55-sonli farmoni qabul qilingan. Unga ko'ra, mahalliy dori vositalari ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish, ichki bozorni ta'minlash darajasini natural hajmda 80 foizga yetkazish vazifikasi qo'yilgan^[1]. Farmon doirasida olib borilayotgan chora tadbirlar farmatsevtika korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, importga qaramlikni kamaytirish, dori-darmon hamda ularning xom ashyo vositalari eksporti sezilarli darajada ortishiga xizmat qilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "...dorivor o'simliklar yetishtirish, ularni qayta ishslash, investisiyalar jalb etib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun keng sharoitlar yaratildi. Bularning natijasida So'nngi besh yilda 71 ta yangi korxona tashkil etilib, 2 ming 500 dan ortiq turdag'i dori vositalari, 241 turdag'i tibbiy buyumlar va 78 turdag'i tibbiy texnika ishlab



chiqarish yo'lgan qo'yildi. Farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qariyb 2 barobar oshdi. Lekin bu natijalar hali yetarli emas. Bugungi kunda mahalliy korxonalar ichki bozor talabini natural hajmda 55 foizga ta'minlamoqda, xolos”^[2].

Farmatsevtika sanoati korxonalarini EIZlar asosida rivojlantirish, ularni qayta ishlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda EIZlar tizimini takomillashtirish borasida ko'plab islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shunga qaramasdan, qayta ishlash sanoati korxonlarida klaster tizimidan samarali foydalanishning strategik yo'nalishlari aniq emasligi hal qilinishi lozim bo'lgan muammolardan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Xiangming Channing tadqiqotlari EIZlarning turli mintaqalardagi iqtisodiy va siyosiy oqibatlarini o'rganadi. Uning fikriga ko'ra EIZlar evolyutsiyasi milliy iqtisodiy siyosat va rivojlanishdagi o'zgarishlarga bog'liq. Davlat siyosati EIZlar gullab yashnashi va aksincha, muvaffaqiyatsizligiga sababchi bo'lishi mumkin^[3; B. 23].

Iqtisodchi olimlardan Lotta Mobergning izlanishlari boshqaruv, institutlar va EIZlarning muvaffaqiyati o'rtaisdagi munosabatlarni o'rganishga qaratilgan. Uning tadqiqotlari EIZ siyosatining samaradorligiga hissa qo'shadigan omillarni o'rganadi. Lotta Mobergning tadqiqotlari shuni ko'rsatmoqdaki, EIZlar texnologik nou-xauni rag'batlantirishi, ishsizlikni yengillashtirishi va hatto, mamlakat miqyosidagi siyosiy islohotlarga hissa qo'shishi mumkin^[4; B. 2].

Kopengagen biznes maktabi professori Aradhna Aggarwalning qarashlariga ko'ra, EIZlarning rivojlanishida faqat EIZ siyosati yetarli emas. EIZlardan maksimal foya olish uchun hukumatning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qilinadi. Tarmoqlar, EIZ ishlab chiquvchilari va bo'linmalari duch keladigan qiyinchiliklarni aniqlash va ularni samarali hal qilishda hamkorlik aloqalari muhimdir^[5; B. 58].

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, farmatsevtikaga ixtisoslashgan EIZlarni samarali tashkil etishda Xitoy, Hindiston va Singapur katta tajriba havzasiga ega mamlakatlar qatoriga kiradi.

TADQIQOT METODIKASI (LITERATURE REVIEW)

Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasini o'rganish bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilan.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Xitoy tajribasi farmatsevtika sanoatida iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlari doirasida farmatsevtikaga ixtisoslashtirilgan erkin iqtisodiy zonalarini(keyingi o'rnlarda FEIZ) rivojlantirishda muvaffaqiyat qozondi. Ushbu zonalar xitoylik iste'molchilar uchun arzon va sifatli doridarmonalardan foydalanishni yaxshilash maqsadida farmatsevtika sanoati uchun raqobatbardosh va innovatsion muhitni rivojlantirishni rag'batlantirish uchun mo'ljallangan.

Xitoya muvaffaqiyatli farmatsevtika FEIZning eng ko'zga ko'ringan misollaridan biri bu Shanxaydag'i Chjanjiang Hi-Tech parkidir. Ushbu park 1992-yilda tashkil etilgan, 2500 hektardan ortiq-maydonni o'z ichiga olgan va shu vaqtidan buyon ko'plab farmatsevtika kompaniyalari va ilmiy-tadqiqot muassasalarini jalb qilgan holda Osiyodagi yetakchi biotexnologik klasterlardan biriga aylandi. Bu yerda 500 dan ortiq mahalliy va xalqaro mashhur farmatsevtika kompaniyalari joylashgan. Park, shuningdek, Xitoyning biotexnologiya sanoatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi va innovatsion dori vositalarini kashf etish va rivojlantirishga erishdi^[6; B. 98].

Guanchjou rivojlanish tumani(Guangzhou Development District): ushbu FEIZ Guanchjouda joylashgan va 1000 hektardan ortiq-maydonni egallaydi. Bu yerda bir nechta farmatsevtika kompaniyalari, shu jumladan Guangzhou Pharmaceutical Holdings Limited va Guangzhou Baiyunshan Pharmaceutical Holdings Company Limited kompaniyalari joylashgan. Undan tashqari bir qator transmilliy farmatsevtika kompaniyalari joylashgan.

Shenchjen farmatsevtika sanoat parki: ushbu FEIZ Shenchjenda joylashgan va 600 hektardan ortiq-maydonni egallaydi. Xitoy resurslari Sanjiu Medical & Pharmaceutical Co. Ltd. va Lepu tibbiyot texnologiyasi (Pekin) Co. Ltd kabi yirik farmatsevtika korxonalari joylashgan.

Xanchjou biofarmatsevtika sanoat parki: ushbu FEIZ Xanchjouda joylashgan va 300 hektardan ortiq-maydonni egallaydi. Hangzhou Jiuyuan Gene Engineering Co. Ltd. va Zhejiang Hisun Pharmaceutical Co. Ltd.

Ishlab chiqarish samaradorligi nuqtayi nazaridan Xitoyning farmatsevtika sanoati o'sish va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun bir nechta omillardan foydalana oldi. Ushbu omillardan ba'zilari quyidagilar:

Katta bozor hajmi: Xitoyda farmatsevtika uchun katta ichki bozor mavjud bo'lib, bu o'sish va innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam berdi. Mamlakatning 1,4 milliarddan ortiq aholisi farmatsevtika kompaniyalariga o'z mahsulotlarini sotish uchun katta mijozlar bazasini taqdim etadi.



Hukumatning farmatsevtika sanoati uchun qo'llab-quvvatlovchi tartibga solish muhitini ta'minlash majburiyatidir. Bunga dori-darmonlarni tasdiqlash jarayonini soddalashtirish va soliq imtiyozlari va ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish kabi imtiyozlar orqali innovatsiyalarni rag'batlantirish choralari kiradi[7; B. 360].

Yana bir muhim omil-farmatsevtika sanoatida innovatsiyalar va o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan iste'dod va tajribani ta'minlaydigan malakali ishchi kuchi va kuchli OTMlarning mavjudligi.

Iqtisodiy jihatdan samarali ishlab chiqarish: Xitoyning farmatsevtika sanoati yuqori sifatli dori-darmonlarni arzon narxlarda ishlab chiqarish uchun tejamkor ishlab chiqarish imkoniyatlardan foydalana oldi. Bu dori-darmonlarni Xitoyda hamda xalqaro miqyosda ham arzonroq va qulayroq sotishga yordam berdi.

Hindiston FEIZ rivojlantirishda katta tajribaga ega, bu mamlakat farmatsevtika sanoatida o'sish va innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam berdi. Hindiston So'nggi bir necha o'n yilliklar davomida farmatsevtika sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda muvaffaqiyat qozonib kelmoqda va bu o'sishga bir necha omillar yordam berdi. Farmatsevtika korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha Hindiston tajribasi haqida ba'zi faktlar va tafsilotlar:

- **Hukumat siyosati:** Hindiston hukumati farmatsevtika sanoatining o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun bir nechta siyosatni amalga oshirdi. Bunga tadqiqot va ishlanmalar uchun soliq imtiyozlari berish, yangi farmatsevtika korxonalarini moliyalashtirish va yangi dori-darmonlarni tartibga solish jarayonini soddalashtirish kiradi.
- **Katta iste'dodlar havzasasi:** Hindistonda farmatsevtika sanoatida innovatsiyalar va o'sishga yordam bergen olimlar, tadqiqotchilar va muhandislarni o'z ichiga olgan malakali mutaxassislarning katta havzasasi mavjud [8; B. 48].
- **Arzon narxlardagi ishlab chiqarish:** Hindiston umumiyligi dori-darmonlarni arzon narxlarda ishlab chiqarishga erishdi, bu esa uni farmatsevtika mahsulotlarining asosiy eksportchisi bo'lismiga yordam berdi. Bunga samarali ishlab chiqarish jarayonlari, kam mehnat xarajatlari va o'ichov tejamkorligi orqali erishildi.
- **Kuchli ichki bozor:** Hindistonda farmatsevtika uchun katta va o'sib borayotgan ichki bozor mavjud bo'lib, bu sohaga talab va investisiyalarni jalg qilishga yordam berdi.
- **Integrasiya va hamkorlik:** Hindiston farmatsevtika kompaniyalari o'zlarining imkoniyatlari kengaytirish uchun boshqa mamlakatlardagi kompaniyalar bilan hamkorlik va sherkilik aloqalarini o'rnatdilar. Bu innovatsiyalarni rivojlantirishga va sohada raqobatbardoshlikni oshirishga yordam berdi.
- **Sifatga e'tibor:** Hindiston farmatsevtika kompaniyalari tobora ko'proq yuqori sifatli standartlarni saqlashga va xalqaro qoidalarga rioya qilishga e'tibor qaratmoqda. Bu sanoatning obro'sini oshirishga va Hindiston farmatsevtika mahsulotlariga talabni oshirishga yordam berdi.
- **Eksportning o'sishi:** Hindiston farmatsevtika mahsulotlarining asosiy eksportchisiga aylandi, eksport 2015-yildan 2019-yilgacha yillik murakkab o'sish sur'ati 11,7% ga o'sdi. Bu raqobatbardoshlikni oshirishga va sohada o'sishni ta'minlashga yordam berdi.

Fikrimizcha, farmatsevtika korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha Hindiston tajribasi muvaffaqiyatli bo'ldi, sanoat o'sishda va innovatsiyalarni tatbiq etishda davom etmoqda. Ushbu muvaffaqiyatga hukumatning siyosati, katta iste'dodlar havzasasi, arzon ishlab chiqarish, kuchli ichki bozor, hamkorlik va integratsiya, sifatga e'tibor va eksportning o'sishi kabi omillar yordam berdi.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilda Hindiston qiymati bo'yicha jahon farmatsevtika bozorining 3,5 foizini tashkil etdi. Bu Hindistonning AQSh va Xitoydan keyin dunyodagi uchinchi yirik farmatsevtika bozoriga aylantiradi.

Hindistonda farmatsevtika ishlab chiqarish va tadqiqotlar uchun qulay muhitni ta'minlash maqsadida bir nechta FEIZlari mavjud. Hindistondagi ba'zi asosiy farmatsevtika FEIZlari quyidagilar kiradi:

Jawaharlal Neru Pharma shahri, Visakhapatnam: bu Hindistondagi eng yirik farmatsevtika EIZ laridan biri bo'lib, 2400 hektardan ortiq-maydonni egallaydi. Bu yerda 150 dan ortiq farmatsevtika kompaniyalari, shu jumladan mahalliy va xalqaro yirik kompaniyalar joylashgan.

- **Ahmedabad FEIZ:** ushbu FEIZ Gujaratda joylashgan va taxminan 1000 hektar maydonga ega. Bu yerda 50 dan ortiq farmatsevtika kompaniyalari, shu jumladan, Abbott va Zydus Cadila kabi yirik transmilliy kompaniyalar joylashgan.

- **Indore EIZ:** ushbu EIZ Madhya-Pradesh shtatida joylashgan va 1300 hektar-maydonni egallaydi. Bu yerda Iyupin, Cipla va Sun Pharma kabi bir nechta farmatsevtika kompaniyalari joylashgan.

- **Shri City FEIZ, Andhra-Pradesh:** ushbu EIZ Andhra-Pradeshta joylashgan va taxminan 6000 hektar-maydonni egallaydi. Bu yerda bir nechta farmatsevtika kompaniyalari, shu jumladan, Dr. Reddy's Laboratories and Granules India kompaniyalar joylashgan.



Singapur bir nechta muvaffaqiyatli farmatsevtika erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etdi, ular mamlakat biotibbiyot sanoatini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Ushbu zonalarning eng ko'zga ko'ringanlaridan biri 2003-yilda tashkil etilgan va 25 gektar-maydonni egallagan Biopolisdir. Biopolis-bu ilmiy muassasalar, tadqiqot tashkilotlari va xususiy kompaniyalarni biomedical tadqiqotlar va ishlanmalar loyihibarida hamkorlik qilish uchun birlashtirgan tadqiqot va rivojlantirish markazi hisoblanadi. Biopolis o'z hududida ishlaydigan kompaniyalarga bir qator imtiyozlarni taklif etadi, jumladan, soliq imtiyozlari, moliyalashtirishdan foydalanish, yuridik va intellektual mulk xizmatlari kabi qo'llab-quvvatlash xizmatlari kabilar.

Singapurdagi yana bir farmatsevtika erkin iqtisodiy zonasasi – 2012-yilda tashkil etilgan va 280 gektar-maydonni egallagan Tuas biomedical parki. Tuas biotibbiyot parki ilg'or farmatsevtika ishlab chiqarish va ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ushbu hududda faoliyat yurituvchi kompaniyalarga soliq imtiyozlari, moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash va zamonaviy obyektlar va infratuzilmalardan foydalanish kabi bir qator imtiyozlarni taklif etadi.

Punggol MediPark tibbiy texnologiyalar va qurilmalar rivojlantirishga qaratilgan Singapurda yana bir farmatsevtika erkin iqtisodiy zonasasi hisoblanadi. Ushbu hududda ishlaydigan kompaniyalarga bir qator imkoniyatlar va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taklif etadi, shu jumladan moliyalashtirish va investitsiyalardan foydalanish, shuningdek ixtisoslashtirilgan laboratoriya va sinov inshootlari.

Ushbu zonalardan tashqari, Singapur biotibbiyot sanoatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun bir qator boshqa tashabbuslarni ham tashkil etdi, jumladan, fan, texnologiya va tadqiqotlar agentligi (A*STAR) va iqtisodiy rivojlanish Kengashining biotibbiyot fanlari guruhini tashkil etish. Ushbu tashabbuslar biotibbiyot sohasiga katta sarmoyalarni jaib qilishga yordam berdi va Singapurning Osiyoda biotibbiyot tadqiqotlari va ishlanmalarining yetakchi markazi maqomiga hissa qo'shdi.

Singapurning farmatsevtika erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirish bo'yicha tajribasi samarali bo'ldi va katta sarmoyalarni jaib qilishga hamda biotibbiyot sohasida innovatsiyalar va o'sishga yordam berdi.

Singapurda farmatsevtika erkin iqtisodiy zonalarining rivojlanishiga bir qancha omillar yordam berdi, jumladan:

- **Pro-business muhiti:** Singapur mamlakatda biznes yuritishni osonlashtiradigan shaffof va samarali tartibga solish tizimiga ega bo'lgan yuqori darajadagi ishbilarmonlik muhitiga ega. Bu farmatsevtika sanoatiga katta miqdordagi xorijiy investitsiyalarni jaib qilishga va farmatsevtika erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishga yordam berdi.
- **Strategik joylashuv:** Singapurning janubi-Sharqiy Osiyodagi strategik joylashuvi uni tez rivojlanayotgan Osyo bozoriga kirishni istagan kompaniyalar uchun ideal markazga aylantiradi. Uning mukammal infratuzilmasi va transport aloqlari tovarlarni, shu jumladan, farmatsevtika mahsulotlarini import qilish va eksport qilishni osonlashtiradi.
- **Malakali ishchi kuchi:** Singapur yuqori malakali va oliy ma'lumotli ishchi kuchiga ega, ilm-fan va texnologiyalarga katta e'tibor beradi. Bu mamlakatga yetakchi farmatsevtika kompaniyalarini jaib qilishga yordam berdi va biomedical sanoatni rivojlantirishga imkon berdi.
- **Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash:** Singapur hukumati farmatsevtika sanoatini yuqori darajada qo'llab-quvvatladи, investitsiyalarni jaib qilish va yangi texnologiyalarni rivojlantirishni rag'batlantirish uchun mablag' va imtiyozlar berdi. Bu sohada faoliyat yuritayotgan kompaniyalarini qo'llab-quvvatlaydigan iqtisodiy rivojlanish Kengashining biotibbiyot fanlari guruhini tashkil etishni o'z ichiga oladi.
- **Hamkorlik va innovatsiyalar:** Singapurning farmatsevtika erkin iqtisodiy zonalarini kompaniyalar, tadqiqot tashkilotlari va ilmiy muassasalar o'rasisidagi hamkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun ishlab chiqilgan. Bu yangi dori vositalari va tibbiy texnologiyalarni rivojlantirishga yordam berdi va mamlakatda farmatsevtika sanoatining o'sishi va muvaffaqiyatiga hissa qo'shdi.

Umuman olganda, ishbilarmonlik muhiti, strategik joylashuv, malakali ishchi kuchi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, hamkorlik va innovatsiya madaniyati Singapurda muvaffaqiyatli farmatsevtika erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishga yordam berdi.

Tadqiqot doirasida FEIZni rivojlantirish bo'yicha Xitoy, Hindiston va Singapur tajribalariga asoslanib, O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda farmatsevtika sanoatini rivojlantirishda yangi innovatsion strategik yo'nalishlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularidan samarali tarzda foydalanish FEIZlar tizimini takomillashtirishga hamda unda faoliyat yurituvchi korxonalardagi strategik imkoniyatlarni yanada kengayishini ta'minlaydi.

O'zbekistonda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining tashkil etilishi, komplekslarning ajralmas joylashuvi, qulay kommunikatsiyalar evaziga ularni zarur infratuzilma bilan ta'minlash sanoatni rivojlantirish uchun katta rag'bat bo'ldi. Yurtimizda qo'shimcha 19 ta erkin iqtisodiy zona va 400 dan ziyod kichik sanoat zonalarini tashkil etilgan bo'lib, ular doirasida mingdan ortiq loyiha amalga oshirildi. Quyida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan farmatsevtikaga ixtisoslashgan EIZlar va ularning yer-maydonlari keltirilgan jadvalni ko'rishimiz mumkin (1-jadval).



1-jadval: Farmatsevtik EIZlar va ularning yer-maydonlari

EIZ nomi	Umumi yer-maydoni (ga)	Muhandislik-kommunikatsiya va boshqa obyektlar bilan band bo'lgan yer-maydoni (ga)	Loyihalarni joylashtirish mumkin bo'lgan jami yer-maydoni (ga)	Plantatsiyaga ajratilgan yer-maydoni (ga)
"Zomin-farm" EIZ	203,5	26,0	177,5	100
"Kosonsoy-farm" EIZ	105,5	24,2	81,3	68,1
"Bo'stonliq-farm" EIZ	41,5	4,5	37	-
"Sirdaryo-farm" EIZ	212,8	32,7	176	-
"Parkent-farm" EIZ	25	7,3	17,70	-
"Andijon-farm" EIZ	52,7	5,5	47,2	-

Manba: EIZ direksiyalari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

- 1 • Keng qamrovli huquqiy-me'yoriy bazani yanada rivojlantirish
- 2 • Infratuzilmaga sarmoya kiritish
- 3 • Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish
- 4 • Sanoat va ilmiy doiralar o'ttasidagi hamkorlikni rivojlantirish
- 5 • Malakali ishchi kuchini rivojlantirish
- 6 • Innovatsiyalar va ilmiy-tadqiqot ishlariga e'tibor

1-rasm: FEIzlarni rivojlantirishda yangi innovatsion strategik yo'nalishlar

Manba: Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

Birinchi. Keng qamrovli huquqiy-me'yoriy bazani yanada rivojlantirish: bunga FEIzlarning tashkil etilishi va ishlashini qo'llab-quvvatlovchi qonunchilikni ishlab chiqish, ularning faoliyatini nazorat qilish uchun nazorat qiluvchi organlarni yaratish va zonalar ichida kompaniyalar tashkil etish uchun aniq asos yaratish va albatta sohadagi intellektual mulkni himoya qilish borasida qonuniy me'yorlar ishlab chiqish kiradi.

Ikkinci. Infratuzilmaga sarmoya kiritish: bunga farmatsevtika sanoatining ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash uchun ixtisoslashtirilgan infratuzilmani rivojlantirish kiradi, masalan, yuqori sifatlari laboratoriya jihozlari, ixtisoslashtirilgan uskunalar va texnologiyalar va mahsulotlarni bozorga o'tkazish uchun transport tarmoqlari va muhandislik kommunikatsiyalarining samarali va uzlusiz ishlashini taminlash.

Uchinchi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: FEIzlar soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlar tufayli xorijiy investorlar uchun jozibador hisoblanadi. Yirik xorijiy farmatsevtika kompaniyalarining sarmoyalarni jalb qilish uchun yanada jozibador muhitni shakkantirish, bu esa mamlakat farmatsevtika sanoatiga tajriba va resurslarni olib kelinishini ta'minlaydi.

To'rtinchi. Sanoat va ilmiy doiralar o'ttasidagi hamkorlikni rivojlantirish: FEEZlar akademik muassasalar va farmatsevtika sanoati o'ttasidagi hamkorlik uchun markazlardan biri bo'lib xizmat qilishi lozim, bu esa yangi yangiliklar va tadqiqot yutuqlariga olib keladi. O'zbekiston FEEZlar doirasida faoliyat yuritayotgan ilmiy muassasalar va farmatsevtika kompaniyalari o'tsida hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ish olib borishi lozim. Bundan tashqari, dori-darmonlarni tasdiqlash jarayonini soddalashtirish va raqamli texnologiyalar imkoniyatidan samarali foydalanish sohada yanada samaradorlikni oshiradi.

Beshinchi. Malakali ishchi kuchini rivojlantirish: FEIzlar yuqori malakali ishchi kuchini talab qiladi va O'zbekiston farmatsevtika sanoati xodimlarini o'qitish va o'qitishni ta'minlaydigan dasturlarni ishlab chiqishi, bu borada chet davlatlar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilishi maqsadga muvofiqdir. Bunga universitetlar bilan hamkorlik, kasb-hunar ta'limi dasturlari, amaliyot va shogirdlik kabilarni kiritish mumkin.

Oltinchi. Innovatsiyalar va ilmiy-tadqiqot ishlariga e'tibor: jahon farmatsevtika bozorida raqobatbardosh bo'lib qolishi uchun O'zbekiston innovatsiyalar, tadqiqotlar va ishlanmalarga e'tibor qaratishi lozim. FEIzlar innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi muhitni ta'minlay oladi va O'zbekiston ilg'or tadqiqot va ishlanmalar bilan shug'ullanadigan kompaniyalarni jalb qilish uchun yetarli tabiiy resurs zahirasiga egadir.



Ushbu 6 ta strategik yo'nalishlarga amal qilinishi, O'zbekiston kuchli va raqobatbardosh farmatsevtika sanoatini rivojlantirishga ko'maklashishi mumkin. Xitoy, Hindiston va Singapur tajribalari O'zbekiston uchun qimmatli tajiba manbayi bo'lib, mamlakat o'z FEIZlarini rivojlantirish va yanada takomillashtirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Farmatsevtikaga ixtisoslashgan EIZlardan foydalanish farmatsevtika sanoatining xalqaro-maydonda raqobatbardoshligini oshirishning muhim strategiyasi sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu maqlada bunday zonalardan foydalanish bo'yicha xorijiy tajribalar va ularning farmatsevtika sektorining raqobatbardoshligini oshirishga chuqur ta'siri ko'rib chiqildi. Tadqiqot jarayoni o'zlarining farmatsevtika qobiliyatlarini mustahkamlashga intilayotgan davlatlar bilan rezonansslashadigan afzalliklar, qiyinchiliklar va muhim yo'nalishlarni bosib o'tdi.

Sanoat ehtiyojlariga mos keladigan rag'batlarni ishlab chiqish, akademiya va sanoat o'tasidagi hamkorlikni rivojlantirish va intellektual mulkni mustahkam himoya qilishni ta'minlash asosiy elementlar sifatida namoyon bo'ladi. Malakali ishchi kuchini rivojlantirish va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv majburiyatি farmatsevtikaqa yo'naltirilgan ElZlar samaradorligini yanada oshiradi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21. 01. 2022-yil "2022–2026-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'iни jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-55-son farmoni <https://lex.uz/docs/-5834287#-5835126>
 2. "Yangi O'zbekiston" ijtimoiy –siyosiy gazeta. Farmatsevtika tarmog'idagi loyihalar ko'rib chiqildi Prezident Shavkat Mirziyoyev 6-sentyabr kuni farmatsevtika tarmog'ida amalga oshirilgan ishlar hamda istiqboldagi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi. № 178 (434), 2021-yil 7sentabr.
 3. Chen, Xiangming. (2009). The Evolution of Free Economic Zones and the Recent Development of Cross/National Growth Zones*. International Journal of Urban and Regional Research. 19. 593 – 621. 10. 1111/j. 1468–2427. 1995. tb00530. x.
 4. Moberg, Lotta. (2013). Moberg The Political Economy of Special Economic Zones. Journal of Institutional Economics. 11. 10. 1017/S1744137414000241.
 5. Aggarwal, Aradhna. "Economic impacts of SEZs: Theoretical approaches and analysis of newly notified SEZs in India." (2010): 1–62.
 6. Wang, X., & Zhu, X. (2019). China's experience in the development of free trade zones: Lessons for other countries. China & World Economy, 27(3), 94–114.
 7. Diao Y, Li M, Huang Z, Sun J, Chee YL, Liu Y. Unlocking Access To Novel Medicines In China-A Review From A Health System Perspective. Risk Manag Healthc Policy. 2019;12:357–367
 8. B., Karunakar. (2016). Indian Pharmaceutical Industry: The Changing Dynamics. 05. 33–56.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

